

NUTQI, ESHITISH QOBILIYATI BUZILGAN VA KO'RISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR BILAN ISHLASH VA ULARNI O'QITISH

Ishpulatova Dinora

Qarshi Davlat Universiteti Pedagogika fakulteti

Boshlang'ich ta'lif yo'nalishi 2-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15102528>

Annotatsiya. Har bir bola sifatli ta'lif olish huquqiga ega, shu jumladan nutqi, eshitish yoki ko'rish qobiliyatida nuqsoni bor bolalar ham. Ushbu bolalar maxsus pedagogik yondashuv, moslashtirilgan ta'lif vositalari va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj sezadilar. Zamonaviy ta'lif tizimi bunday bolalar uchun inklyuziv muhit yaratishga intiladi. Davlat, jamiyat va o'qituvchilar hamkorlikda harakat qilmasa, bunday bolalar jamiyatga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Ushbu maqolada nutqi, eshitish va ko'rish qobiliyatida buzilishi bo'lgan bolalar bilan ishlash usullari, maxsus ta'lif texnologiyalari, innovatsiyalar va jamiyatning roli haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: logopedik terapiya, nutq, artikulyatsiya mashqlari, fonomatik idrok, vizual, taktil, koxlear, eshitish apparatlari.

WORKING WITH AND EDUCATING CHILDREN WITH SPEECH, HEARING, AND VISUAL IMPAIRMENTS

Abstract. Every child has the right to a quality education, including children with speech, hearing, or visual impairments. These children need a special pedagogical approach, adapted educational tools, and social support. The modern education system strives to create an inclusive environment for such children. If the state, society, and teachers do not work together, such children may experience difficulties in adapting to society. This article provides detailed information about the methods of working with children with speech, hearing, and visual impairments, special educational technologies, innovations, and the role of society.

Keywords: speech therapy, speech, articulation exercises, phonological perception, visual, tactile, cochlear, hearing aids.

РАБОТА С ДЕТЬМИ С НАРУШЕНИЯМИ РЕЧИ, СЛУХА И ЗРЕНИЯ И ИХ ОБУЧЕНИЕ

Аннотация Каждый ребенок имеет право на качественное образование, включая детей с нарушениями речи, слуха или зрения. Этим детям необходим особый педагогический подход, адаптированные средства обучения и социальная поддержка. Современная система образования стремится создать для таких детей инклюзивную среду. Если государство, общество и педагоги не будут работать сообща, такие дети могут столкнуться с трудностями адаптации в обществе. В статье подробно

рассказывается о методах работы с детьми с нарушениями речи, слуха и зрения, специальных образовательных технологиях, инновациях и роли общества.

Ключевые слова: логопед, речь, артикуляционные упражнения, фонологическое восприятие, зрительное, тактильное, когнитивное, слуховые аппараты.

Demak, birinchisi nutqi buzilgan bolalar bilan ishlash Nutqiy muammolar bolaning muloqot qilish qobiliyatiga, o‘ziga bo‘lgan ishonchiga va jamiyatga moslashuviga ta’sir qiladi.

Nutq buzilishi tug‘ma yoki orttirilgan bo‘lishi mumkin. Bunday bolalar bilan ishlash uchun maxsus pedagogik yondashuvlar va texnologiyalar qo‘llaniladi.

Logopedik terapiya: Logopedlar bolalarning talaffuzini yaxshilash va muloqot qobiliyatini rivojlantirish uchun turli usullardan foydalanadilar:

Nafas olish mashqlari – nutq paytida to‘g‘ri nafas olish va ovoz chiqarishni yaxshilash uchun.

Artikulyatsiya mashqlari – til, lab va jag‘ mushaklarini rivojlantirish orqali to‘g‘ri talaffuz qilish.

Fonematik idrokni rivojlantirish – tovushlarni farqlash va ularni to‘g‘ri ishlatishni o‘rgatish.

O‘yin orqali ta’lim – bolaning qiziqishini oshirish va o‘rganish jarayonini osonlashtirish.

Vizual va taktil yordamlar: Ba’zi bolalar tovushlarni tushunishda qiyinchilikka duch kelishi mumkin. Shuning uchun:

Rasmlar va videolar yordamida so‘zlarning ma’nosini tushuntirish.

Taktil materiallar (masalan, maxsus rel’efli harflar) orqali o‘rganish jarayonini osonlashtirish.

Bunday bolalar bilan ishlashda oilaning va jamiyatning o’rni katta. Ota-onalar va o‘qituvchilar bola bilan muntazam shug‘ullanishlari kerak. Ular:

Bola bilan ko‘proq suhbat qurish.

Oddiy so‘z va jumlalar bilan muloqot qilish.

Sabrlilik bilan bolaning nutqiy muammolarini tushunish va uni rag‘batlantirish.

Eshitish qobiliyati buzilgan bolalar bilan ishlash: Eshitish qobiliyati cheklangan bolalar nutqni tushunishda va so‘zlashda muammolarga duch keladilar. Ular uchun maxsus moslamalar va metodikalar muhim ahamiyatga ega.

Texnologik vositalar

Eshitish apparatlari – tovushlarni kuchaytirib, bolaga yaxshiroq eshitish imkonini beradi.

Koxlear implantlar – to‘liq eshitmaydigan bolalar uchun maxsus jarrohlik usuli bilan o‘rnataladigan qurilma.

Subtitrlar va maxsus ovozli yordamchilar – matn va ovozni sinxronlashtirish orqali ta’limni osonlashtirish. Inklyuziv ta’lim va sinf sharoitini moslashtirish: eshitish qobiliyati cheklangan bolalar uchun sinflar quyidagi talablarga javob berishi lozim: O‘qituvchilar imo-ishora tilini bilishi kerak. Sinf akustik jihatdan moslashtirilgan bo‘lishi lozim. Vizual materiallar keng qo‘llanilishi kerak. Ko‘rish qobiliyati buzilgan bolalar bilan ishlash: ko‘rish qobiliyati buzilgan bolalar uchun maxsus moslashtirilgan ta’lim usullari zarur. Brayl alifbosi va taktik vositalar, Brayl yozuvi – ko‘zi ojiz bolalar uchun asosiy o‘qish va yozish tizimi. Rel’efli jadvallar va taktik xaritalar – bolaga muhitni his qilish va tushunishda yordam beradi. Audio va raqamli texnologiyalar, audio kitoblar – matnlarni eshitib tushunish imkonini yaratadi. Ovozli dasturlar – kompyuter yoki mobil ilovalar orqali mustaqil o‘qish va yozishga yordam beradi.

Mustaqil harakatlanish va jamiyatga integratsiya:

Yo‘nalishlarni ovoz orqali anglash – shahar muhitida mustaqil harakatlanish uchun maxsus texnologiyalar.

Xulosa

Nutqi, eshitish va ko‘rish qobiliyati buzilgan bolalar ta’lim olishda maxsus yondashuvga muhtoj. Ularni o‘qitishda innovatsion texnologiyalar, individual yondashuv va jamiyatning qo‘llab-quvvatlashi muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat va jamiyat ushbu bolalar uchun qulay sharoit yaratishi, maxsus ta’lim dasturlarini kengaytirishi va pedagogik innovatsiyalarni rivojlantirishi lozim. Faqat shu yo‘l bilan barcha bolalar ta’lim olish huquqididan to‘liq foydalana oladi va jamiyatning faol a’zosi bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

REFERENCES

1. Sidiqova D.S (2021) Zamonaviy ta‘limda masofaviy o‘qitish tizimi. Ilmiy taraqqiyot 2(7),1027-1031
2. Shavkatovna, S. D. (2022). Masofaviy ta’lim sharoitida boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish metodikasi. PEDAGOGS jurnali, 1(1), 61-62
3. Ismoilova Yu. UMUMIY PEDAGOGIKA. "Fan va ta‘lim "nashriyoti 2022-yil
4. Murodova Zu. UMUMIY PEDAGOGIKA "Fan va ta‘lim " nashriyoti, 2022-yil
5. To’rayev S. Qashqadaryo jadidlari – Qarshi: Nasaf, 2002.
6. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik– Toshkent: Ma'naviyat, 2002.
7. Xujayarova N.S UMUMIY PEDAGOGIKA "Fan va ta'lim " nashriyoti, 2023-yil
8. D.Sh.Nafasov, I.X.Ruzimova, I.Q.Sayfullaeva, N.B.Djabbarova. Inklyuziv ta'lim. Gospital pedagogika" Bookmany print". Toshkent